ORCID: 0009-0000-0941-8276

VIRTUAL MUZEYLAR VOSITASIDA TARIX FANINI O‘QITUVCHILARI MALAKASINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI VA SHART-SHAROITLARI

To‘ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi
Qo‘qon DPI tayanch doktoranti
toranazarovamuxlisa@gmail.com TEL:+998944491558

Annotatsiya. Ushbu maqolada virtual muzeylarning tarix fani o‘qituvchilari malakasini oshirishdagi pedagogik ahamiyati, ularning innovatsion ta’lim jarayonlaridagi o‘rni va afzalliklari tahlil qilinadi. Virtual reallik va interfaol texnologiyalar yordamida tarixiy bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligi oshirilishi, mustaqil ta’lim va tadqiqotchilik ko‘nikmalarining rivojlanishi yoritiladi. Shuningdek, virtual muzeylardan foydalanishning asosiy shart-sharoitlari, texnologik va metodik jihatlari haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Virtual muzeylar, tarix ta’limi, pedagogik mexanizm, interfaol texnologiyalar, mustaqil ta’lim, innovatsion pedagogika, virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), o‘qituvchi malakasini oshirish, zamonaviy ta’lim usullari.

Аннотация. В статье анализируется педагогическое значение виртуальных музеев в повышении квалификации учителей истории, их роль и преимущества в инновационных образовательных процессах. Особое внимание будет уделено использованию виртуальной реальности и интерактивных технологий для повышения эффективности усвоения исторических знаний и развития навыков самостоятельного обучения и исследования. Также будет предоставлена подробная информация об основных условиях, технологических и методических аспектах использования виртуальных музеев.

Ключевые слова: Виртуальные музеи, историческое образование, педагогический механизм, интерактивные технологии, самостоятельное обучение, инновационная педагогика, виртуальная реальность (VR), дополненная реальность (AR), подготовка учителей, современные методы обучения.

Annotation: This article analyzes the pedagogical significance of virtual museums in improving the qualifications of history teachers, their role and benefits in innovative educational processes. The effectiveness of mastering historical knowledge using virtual reality and interactive technologies is highlighted, as well as the development of independent learning and research

ISSN 3030-3907

skills. It also provides detailed information on the main conditions, technological and methodological aspects of using virtual museums.

Keywords: Virtual museums, history education, pedagogical mechanism, interactive technologies, independent learning, innovative pedagogy, virtual reality (VR), augmented reality (AR), teacher training, modern teaching methods.

Kirish. O‘zbekiston bugungi kunda mustahkam siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimga ega zamonaviy davlat sifatida dadil rivojlanish yo‘lidan bormoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda keng miqyosda islohotlar amalga oshirildi. Shuningdek, ta’lim tizimiga zamonaviy ilm-fan yutuqlarini joriy etish, mamlakatimizda ilm-fanni yanada rivojlantirish, ilmiy faoliyatga iste’dodli, qobiliyatli yoshlarni jalb etish orqali yuqori bilim va malakali jamiyatni shakllantirishga tomon ildam qadamlar qo‘yildi.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda oliy ta’lim tizimini takomillashtirish, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur normativ-huquqiy asos ishlab chiqildi. 2017 yil 27 fevraldagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 103-sonli qarori[1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida» 2019 yil 27 avgustdagi PF-5789-sonli Farmoni[2], Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019 yil 23 sentyabrdagi 797-sonli qarori[3] yuqori samarali zamonaviy ta’lim va innovasiya texnologiyalari, ilg‘or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda, oliy o‘quv yurtlarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv rejalari, dastur va uslublarini tubdan yangilash, oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilarining global Internet tarmog‘i, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullaridan foydalangan holda, zamonaviy innovatsion pedagogika, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini egallashi va ularni o‘quv jarayoniga faol tatbiq etishi, oliy o‘quv yurtlari pedagog kadrlarining chet tilini amaliy o‘zlashtirish darajasini oshirish va undan o‘z kasb mahorati, pedagogik va ilmiy faoliyatini muttasil oshirib borishi uchun keng foydalanishi uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga chuqur singib bormoqda. Xususan, tarix fani o‘qituvchilari malakasini oshirishda virtual muzeylardan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. Virtual

ISSN 3030-3907

muzeylar pedagogik jarayonda tarixiy bilimlarni chuqur o‘rganish, o‘qitish jarayonini jonlantirish va interfaol muhit yaratishda muhim vositadir. Ushbu maqolada virtual muzeylarning pedagogik mazmuni, ularning afzalliklari, o‘qituvchilar malakasini oshirishdagi roli hamda ularni samarali qo‘llash shart-sharoitlari yoritiladi.

Ta’limda virtual muzeylarning asosiy maqsadlari obyektlarni raqamlashtirish va ularni virtual muzeyda namoyish etish, ular xarakterlaydigan barcha elementlarning saqlanib qolishiga, paydo bo‘lishiga va mustahkamlanishiga erishadi hamda jamiyatning kollektiv xotirasini saqlaydi[5]. Shuningdek, virtual muzey ijtimoiy, ta’lim, madaniy, va iqtisodiy maqsadlarni ilgari suradi va tarixiy madaniy hamda ilmiy targ‘ibotga hissa qo‘shadi. Virtual muzeylarning ta’limdagi roli va ijtimoiy hissasi ularning har bir ijtimoiy guruh bilan aloqalarini va ularning ekstroversion madaniy rolini oshirish orqali erishadi. Shu bilan birga, u talabalar auditoriyasini rag‘batlantiradigan tajriba almashishni taklif qilishi mumkin.

Virtual muzeylarning pedagogik mazmuni va afzalliklari haqida to‘talarigan bo‘lsak quyidagilarni misol qila olamiz. Virtual muzeylar zamonaviy ta’lim muhitining ajralmas qismiga aylanib, quyidagi pedagogik jihatlarga asoslanadi:

1. Vizual va interfaol ta’lim muhiti – Virtual muzeylar orqali tarixiy jarayonlarni jonlantirish, tarixiy obidalar va eksponatlar bilan bevosita tanishish imkoniyati yaratiladi. An’anaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilar va o‘qituvchilar tarixiy obidalarning tasvirlari bilan cheklangan holda tanishadilar. Virtual muzeylar esa tarixni interfaol muhitda his qilish, eksponatlar bilan bevosita muloqot qilish, ular haqida qo‘shimcha ma’lumotlarga ega bo‘lish imkonini beradi. Natijada, tarixiy bilimlarni vizual idrok qilish va eslab qolish samaradorligi ortadi.
2. Mustaqil ta’lim va tadqiqotchilik faoliyati – O‘qituvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlash, tarixiy faktlarni mustaqil ravishda o‘rganish va tadqiq qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Virtual muzeylar orqali o‘qituvchilar mustaqil ravishda turli tarixiy davrlar va madaniyatlarni o‘rganishlari, eksponatlar va manbalarni tahlil qilishlari, mustaqil tadqiqot olib borishlari mumkin. Bu esa ularning ilmiy-analitik qobiliyatlarini rivojlantirib, o‘z pedagogik faoliyatlarida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkonini yaratadi.
3. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish – Virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR) va interfaol multimedia texnologiyalaridan foydalanish orqali dars jarayonlari samaradorligini oshirish mumkin. Ushbu texnologiyalar yordamida tarixiy voqealar qayta tiklanadi, o‘quvchilar va o‘qituvchilar tarixiy shaxslar, arxitektura obidalari va madaniy meros bilan bevosita tanishish imkoniga ega bo‘ladilar. Shuningdek, VR va AR texnologiyalari orqali mustaqil

ISSN 3030-3907

ekskursiyalar tashkil etish, interfaol o‘yinlar va topshiriqlar yaratish mumkin, bu esa ta’lim jarayonining qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

4. Kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish – O‘qituvchilar tarixi bilimlarini nafaqat o‘zlashtirish, balki ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Virtual muzeylar orqali tarix fani o‘qituvchilari o‘z kasbiy kompetensiyalarini oshirishlari, tarixiy jarayonlarni tahlil qilish, manbalarni mustaqil o‘rganish va ularni o‘quvchilarga taqdim etish malakalarini shakllantirishlari mumkin. Shu bilan birga, ular o‘z darslarini zamonaviy texnologiyalar yordamida interfaol tarzda olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

5. Motivatsiyani oshirish – Interfaol o‘quv muhiti o‘qituvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirib, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishga rag‘bat uyg‘otadi. Virtual muzeylar orqali ta’lim jarayoni zerikarli bo‘lib qolmaydi, aksincha, interfaol usullar orqali o‘qituvchilar va o‘quvchilarning darsga bo‘lgan ishtiyoqi oshadi. Bu esa pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir qiladi.

Tahlil va natijalar. Virtual muzeylarning o‘qituvchilar malakasini oshirishdagi roli ham salmoqli deb hisoblaymiz. Virtual muzeylardan foydalanish o‘qituvchilarga tarixiy materiallarni yanada samarali o‘rganish va o‘quvchilarga taqdim etish imkonini beradi. Quyidagi jihatlar malaka oshirish jarayonida virtual muzeylarning o‘rnini belgilaydi:

1. Real tarixiy voqealarni qayta tiklash – Virtual muzeylar orqali tarixiy voqealarni ko‘z oldiga keltirish imkoniyati paydo bo‘ladi.
2. Virtual ekskursiyalar tashkil etish – O‘qituvchilar o‘z dars jarayonida talabalarni virtual ekskursiyalarga olib chiqish imkoniga ega bo‘ladilar.
3. Ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish – O‘qituvchilar o‘z ilmiy-tadqiqot faoliyatida virtual muzeylardan material sifatida foydalanishlari mumkin.
4. Zamonaviy dars ishlanmalari yaratish – Virtual vositalardan foydalangan holda yangi metodik ishlanmalar yaratish imkoniyati kengayadi.

Virtual muzeylardan foydalanish alohida shart-sharoitlari talab etadi. Virtual muzeylarni pedagogik jarayonda muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etadi: Texnologik infratuzilmani shakllantirish – Virtual muzeylardan samarali foydalanish uchun zamonaviy kompyuter texnologiyalari (VR qurilmalar, interfaol ekranlar, projektorlar), yuqori tezlikdagi internet va maxsus dasturiy ta’minot mavjud bo‘lishi lozim. Kadrlarni tayyorlash va malaka oshirish – Tarix fani o‘qituvchilari virtual muzey resurslaridan

ISSN 3030-3907

foydalanish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslarida ishtirok etishlari, innovatsion texnologiyalar bilan ishlash malakalarini oshirishlari kerak.

Interfaol ta’lim dasturlarini ishlab chiqish – Virtual muzeylardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun maxsus o‘quv dasturlari, multimediya darsliklari va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi zarur. Virtual muzey kontentini boyitish – Mahalliy va xalqaro tarixiy merosni qamrab oluvchi yuqori sifatli virtual eksponatlar, 3D rekonstruksiyalar, tarixiy hujjatlar va interfaol dars materiallari muntazam ravishda takomillashtirilishi lozim. Ilmiy-metodik tadqiqotlarni rivojlantirish – Virtual muzeylar asosida pedagogik tadqiqotlar olib borish, ularning ta’lim jarayoniga ta’sirini o‘rganish va yangi innovatsion usullarni ishlab chiqish lozim. Foydalanuvchilar uchun qulay muhit yaratish – Virtual muzeylardan foydalanishning oson va intuitiv interfeysga ega bo‘lishi, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun moslashtirilgan yo‘riqnomalar va qo‘llanmalar taqdim etilishi muhim. Moliya va resurslarni ta’minlash – Virtual muzey platformalarini yaratish va ularni doimiy ravishda rivojlantirish uchun yetarli moliyaviy va moddiy resurslar ajratilishi lozim. Agar ushbu shart-sharoitlar ta’minlansa, virtual muzeylar tarix fani o‘qituvchilari malakasini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Virtual muzeylar pedagogik jarayonda tarix fanini yanada jonlantirish, o‘qituvchilarning bilim va malakasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Texnologik imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish natijasida nafaqat o‘qituvchilarning, balki o‘quvchilarning ham tarixiy bilimlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ta’lim sifatini yuqori darajaga ko‘tarish mumkin. Shu boisdan, virtual muzeylarni ta’lim tizimiga integratsiya qilish va ularning imkoniyatlaridan keng foydalanish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, virtual muzeylardan samarali foydalanish uchun ta’lim muassasalarining texnik va metodik jihatdan rivojlanishi talab etiladi. Shu orqali tarix fani o‘qituvchilari o‘z bilimlarini doimiy ravishda yangilab borishlari va o‘quvchilarga yanada qiziqarli va interfaol darslar taqdim etishlari mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. 2017 yil 27 fevraldagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 103-sonli qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida» 2019 yil 27 avgustdagi PF-5789-sonli Farmoni

ISSN 3030-3907

3. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019 yil 23 sentyabrdagi 797-sonli qarori

4. М.Т.Жуманиёзова Ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлашнинг педагогик асослари. монография. – Тошкент: “Innovatsiya-Ziyo”, 2023, 128 б

5. Kampouropoulou.M, Fokiali.P, Efstathiou.I, Stefos,E. The Virtual Museum in Educational Practice. Review of European Studies; Vol. 5, No. 4; 2013 ISSN 1918-7173 E-ISSN 1918-7181 Published by Canadian Center of Science and Education.

ISSN 3030-3907